

# RIVOJLANISHIDA JISMONIY YOKI PSIXIK NOQSONLARI BO‘LGAN BOLALARNI RIVOJLANTIRISHDA INKLYUZIV TA’LIMNING O‘RNI

**Z.M.Umarova**

MTMRMQTMOI “Maktabgacha ta'lim metodikasi” kafedrası

katta o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada maktabgacha yoshdagi alohida yordamga muhtoj bolalar bilan maktabgacha ta'lim takilotlarida olib boriladigan ilmiy-metodik ma'lumotlar tahlil qilingan. Imkoniyati cheklangan bolalar bilan olib boriladigan ishlarni integratsiya asosida tashkil etish orqali samaradorlikka erishish mukinligi aniq ma'lumotlar asoaida bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** inklyuziv ta'lim, maktabgacha ta'lim, psixologik yordam, korreksiya, defektolog, maxsus dastur, qobiliyat, kamolot.

## THE ROLE OF INCLUSIVE EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF CHILDREN WITH PHYSICAL OR MENTAL DISABILITIES

**Abstract.** This article analyzes the scientific and methodological data conducted in preschool educational institutions with children with special needs of preschool age. On the basis of reliable data, the possibility of achieving efficiency by organizing work with children with disabilities on an integrated basis is declared.

**Keywords:** inclusive education, preschool education, psychological assistance, correction, defectologist, special program, abilities, maturity.

Bugungi kunda tez taraqqiy qilayotgan dunyoda ta'lim modernizatsiyasiga e'tibor yanada kuchaymoqda. Ayni shunday davrda jamiyatning muhim bo'g'inlaridan hisoblangan imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatning teng huquqli a'zolari sifatida kamol topishiga erishida inklyuziv ta'limni joriy etish va joylarda samarali faoliyat olib borishi ga mos shart-sharoitlar yaratish zarur.

Har bir bola o'ziga xos. Ularning tashqi ko'rinidan tortib, xarakter xususiyatlari, odob-ahloqi-yu, his tuyg'ulari bir-biridan keskin farq qilishi

barchaga ayon. Chunki ular turli oilalarda kamol yetmoqda. Shunga yarasha bolalarning har birining o'ziga xos hayot yo'llari mavjud.

Odatda yangiliklarning hayotga kirib kelishi va amaliyotda qo'llaniishi bevosita uning sifati va samaradorligi bilan belgilanadi. Maktabgacha ta'limda inklyuziv ta'limning joriy etilishi ham ushbu sohada sifat va samaradorlikni ta'min etish, qolaversa imkoniyati cheklangan bolalarning ham jamiyatning teng huquqi a'zolari sifatida qarab, ularning ijtimoiylashuvini ta'min etishga qaratilgan ishlarning eng zaruri va foydalisi deb bilamiz. Maktabgacha ta'lim sohasida inklyuziv ta'limni joriy etish va bu borada ta'lim samaradoligiga erishish uchun ta'lim munosabatlarning barcha ishtirokchilaridan yuksak darajadagi maxsus professionallikni va kreativlikni talab etadi. Inklyuziv ta'limni joriy etish, bu shunchaki, imkoniyati cheklangan bolalarni boshqa sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda ta'lim olishini ta'min etishgina emas, inklyuziv ta'limning maktabgacha ta'lim tashkilotlarida joriy etilishi va muvaffaqiyatli amalga oshishi sohadagi bir qator muammolarni hal qilishga, tashkilotdagi mukammal tayyorgarlikka ega bo'lgan mutaxassislar, psixolog, defektologlarning mavjudligiga, qolaversa tashkilotdagi va ota-onalar o'rtasidagi munosabatlarga o'g'ri va sifatli yo'lga qo'yilishiga ham bog'liq.

Bu o'rinda shuni alohida qayd etib o'tish lozimki, mamlakatimizda maktabgacha ta'lim sohasida inklyuziv ta'limni amalga oshirish endigina boshlanmoqda. Shu munosabat bilan Davlatimiz tomonidan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni joriy etishga doir qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilindi.

Yosh avlodni ilk yosh davridan boshlab ta'lim-tarbiyalash, uning jismoniy va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash eng muhim vazifalardan biridir. Bola uchun eng yaxshi va birinchi tarbiyachi bu ota-ona. Sababi ota-ona bolaning ulg'ayib borish bosqichlari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'ladi. Bu esa muhim ahamiyatga ega. Bola yaxlit va juda murakkab organizm. Boladagi har bir kuzatilayotgan kamchilik bolaning xulq atvoriga, kayfiyatiga, xarakteriga ta'sir ko'rsatadi. Uni

rivojlantirish esa murakkab jarayondir. Bolani rivojlanishi uchun hamma ma'suldir.

Alohida yordamga muxtoj bo'lgan bolalarni tengqurlari bilan birga ta'lim olishlari uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlar o'rtasidagi to'siqlarni yo'qotish va integrasion ta'limni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun bir necha vazifalarni amalga oshirish tavsiya etiladi: alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni maxallalarda erta aniqlab, ma'lumotlar bankini yaratish, yosh oilalar orasida axborot vositalari orqali tashviqot ishlarini olib borish, alohida yordamga muhtoj farzandlari bo'lgan oilalar uchun tavsiyanomalar, metodik adabiyotlar ishlab chiqish va nashr ettirish, murakkab nuqsonli bolalar uy sharoitida ta'lim olishi uchun maxsus pedagoglarni tayyorlash va yo'naltirish, ota-onalar uchun "Ota-ona klubi" ni tashkil etish, ta'lim-tarbiyalash sohasida xalqaro hamkorlikni tashkil etish. [1]

Alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalardagi nuqsonlarni bartaraf etish ishlarini amalga oshirishida oila bilan xamkorlikda bo'lish va ularga yordam berish katta ahamiyatga ega. Bolaga ta'lim-tarbiya berish rivojlantirish va korreksiyalash vazifasi oilaga yuklanadi. Ushbu talablarga tayangan holda alohida yordamga muhtoj bolalarga ta'lim-tarbiya berish va ularni hayotga moslashtirish maxsus bilim hamda bu vazifaga rivojlanishida kamchiliklarga ega bo'lgan bola xususiyatlarini bilgan holda yondoshishni talab etadi.

Alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni nutqi va ma'naviyati, erkin fikrlash dunyoqarashi, tafakkurini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratish muhimdir. Bolalarda kuzatilayotgan kamchiliklarni rivojlantirishda to'g'ri diagnostika qilish, profilaktika ishlarini olib borish, korreksion-pedagogik yordamni tashkil etish va rehabilitatsiya ishlari o'z vaqtida olib borilsa har bir shaxs shakllanadi.

Hozirgi kunda jamiyatimizda alohida yordamga muhtoj bolalarni ijtimoiy-xuquqiy ximoyalash, sog'ligini tiklash, ta'lim berish, kasb-xunarga o'rgatish va sog'lom jamiyatga tenglashtirish masalalari dolzarb masalalardan biri bo'lmoqda.

Qalbi siniq bolani ko‘z oldimizga keltirsak, iliq so‘zlariga intiqlikni, yordamga muxtojligini, uning yuz qiyofasidan, so‘zidan anglash qiyin emas.

Alohida yordamga muhtoj bo‘lgan bola oilasini o‘rganishda so‘rovnomalar olish, suhbat, kuzatish usullaridan foydalanilgan holda olib boriladi. O‘rganish davrida bolaga korreksion-pedagogik ta‘sir etish usullaridan ota-onalarni xabardor qilgan holda yakka rivojlantirish dasturini ishlab chiqiladi.

Yakka rivojlantirish dasturida bolaning kamchiliklaridan kelib chiqqan holda korreksion-pedagogik ishlar rejasi tuziladi hamda ish yo‘nalishlari belgilanadi. Yakka rivojlantiruvchi dastur maxsus ta‘lim tashkilotlar o‘quv dasturlari asosida, bolaning yoshi hamda rivojlanishidagi o‘ziga xosliklari va o‘sishi dinamikasini hisobga olgan holda qisqa muddatga tuziladi. Bolaga ta‘lim-tarbiya berish jarayonida yuzaga kelgan muammolar yoki ijobiy o‘zgarishlar, korreksion-pedagogik ishlarni to‘ldirish jarayonlari individual ish jarayonida rejaga kiritilib boriladi.

Ota-onalarga bola rivojlanishida kuzatiladigan kamchiliklarini, uning qobiliyati va yaqin rivojlanish sohasini e‘tiborga olgan holda korreksion-pedagogik ish istiqbollari belgilanadi hamda maqbul pedagogik shart-sharoitlarini tanlash bo‘yicha maslahat va tavsiyalar berib boriladi.

Ota-onalarni qo‘llab-quvvatlash jarayonida psixologik-pedagogik maslahatlar berib borish vazifalari quyidagilardan iborat: ota-onalarga oilaviy tarbiya muhimligini tushuntirish va uni qo‘llab-quvvatlash, bolalarni rivojlantirishda ota-ona va bolalar o‘rtasida to‘g‘ri munosabatlarni hosil qilish bo‘yicha yordam ko‘rsatish, maxsus ta‘lim-tarbiyani tashkil etish bo‘yicha pedagogik shart-sharoitlarni belgilash bo‘yicha maslahatlar berish, bolalarning emosional-irodaviy sohalardagi buzilishlarini oldini olish, bolalar kattalar va tengdoshlari bilan muomala muammolarini bartaraf etish.

Ota-onalar farzandlarining inklyuziv ta‘limda qanday ta‘lim berilayotganidan xabardor bo‘libgina qolmay ularga yordam kerakligini his qilgan holda o‘zlari ham ishtirok etadilar. Pedagoglar ota-onalardan farzandlari haqida

fikrlarini so‘rasalar, ota-onalar qadrlanganliklarini his etadilar va bolalarga o‘rganish imkoniyatlarini berishda o‘zlarini teng huquqli sherik deb hisoblaydilar. [2] Pedagoglar tashkilotda foydalanayotgan usullarni qo‘llash orqali ota-onalar ham bolalar bilan qanday qilib uyda yaxshiroq munosabatda bo‘lishni o‘rganib olishlari mumkin. Ular boshqalar bilan jamoada o‘zaro harakat qilishni, shuningdek, bir-birlarining muammolarini tushunishni va hal etishni o‘rganadilar. Eng muhimi, ular farzandlarining boshqa bolalar bilan taqqoslaydilar va sifatli ta‘lim olayotganliklaridan xabardor bo‘ladilar.

Inklyuziv ta‘limni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish orqali bu jarayonda pyedagoglar qator yutuqlarga erishishlari mumkin. Ular qobiliyati turli xil bo‘lgan tarbiyalanuvchilarga ta‘lim berishda yangi usullarni o‘zlashtirish, bolalarga ta‘lim-tarbiya berishning turli xil usullarini egallashlari lozim bo‘ladi..

Qiyinchiliklarni yengish uchun choralarni qidirish mobaynida ular insonlarga, bolalarga va sharoitlarga ko‘proq ijobiy bo‘lgan munosabat va yondashishlarni rivojlantira olishlari mumkin. Ta‘lim jarayonini ijodiy tashkil etish bolalardagi bilish jarayonini zerikarli ish sifatida emas, balki xursandchilikka aylantiradi. Bu esa alohida yordamga muxtoj bo‘lgan bolalar va sog‘lom bolalar uchun ham ijobiy o‘zgarishlarga olib keladi. Bolalar bir-biriga mehr oqibatli bo‘lishadi, ta‘limning bu tarzda tashkil etilishi bolalarning bir-biriga qarab ta‘lim olishlarini rivojlantiradi.

Inklyuziv ta‘lim pedagoqlarni o‘z ustilarida ishlashga undaydi. Boshqa ta‘lim tashkilotlari bilan xamkorlikda ishlashi, pedagoqlarning bir-biri bilan muloqot qilishi natijasida yangi g‘oyalar kelib chiqishiga imkoniyatlar yaratadi. Bu esa tarbiyalanuvchilarni to‘g‘ri ta‘limga yo‘naltirish, tarbiyalanuvchilar o‘rtasida psixologik muhitni to‘g‘ri targ‘ib qilish, alohida yordamga muhtoj bo‘lgan bolalar holatidan kelib chiqqan holda yondashish usul va uslublarni targ‘ib qilishda ijobiy imkoniyatlarga olib keladi. Ushbu yangi g‘oyalarni qo‘llash orqali pedagoglar o‘z tarbiyalanuvchilarning ko‘proq ijobiy ta‘sir ko‘rsata olishlari mumkin. Ular jamoadan ko‘proq yordamni olishlari va yaxshi olib borayotgan

ishlari uchun rag‘batlanishlari ham mumkin. Barcha bolalarning tashkilotlarda bor qobiliyatlari bilan muvaffaqiyatga erishishlari, pedagoglarning ishlaridan ko‘proq qoniqishlarini va muvaffaqiyatga asoslangan katta his-tuyg‘uni boshlaridan o‘tkazishlari mumkin. Biroq “Barcha bolalarning muvaffaqiyatga erishishlari”, barcha bolalarning faoliyati muvaffaqiyatli o‘tadi degani emasligini esga tuting.[3] Bu bolalarning turli usullar bilan o‘rganishlarida, shuningdek, o‘rganish jarayonida muvaffaqiyatlarni qanday qilib namoyon etishlarida turfalikni qabul etishni anglatadi. Biz pedagoglar bolalarni borligicha qabul qilishimiz va o‘z ustimizda izlanishimiz, yana bir ochilmagan qirralarimizni ochishga olib kelishimiz mumkin. Har bir pedagog o‘z kasbini sevsa turli xil bosichlardan o‘ta oladi va shu bilan birga yordamga muhtoj bo‘lgan bolani hayotga tarbiyalaydi. Alohida yordamga muhtoj bo‘lgan bola hamda uning ota-onasiga ham kelajakda katta-katta umidlarga erishishini amalga oshirishida xissasini qo‘shadi.

Inklyuziv ta‘lim oila bilan birga jamoalarga ham ko‘pgina manfaatlarni keltirish mumkin. Inklyuziv ta‘lim tashkilotiga qancha ko‘p tarbiyalanuvchilar qatnar ekan, jamoada fahrlanish hissi rivojlanadi. Ular jamiyatda faol qatnashuvchi ko‘proq “kelajakdagi jamoa rahbarlari” tayyorlanayotganini biladilar. Jamoa salohiyatli ijtimoiy muammolarni, ya‘ni kichik jinoyatlar yoki o‘smirlarning muammolarini kamaytira olish mumkinligini anglab yetadi. Jamoa a‘zolari, tashkilot va jamoa o‘rtasida yaxshiroq aloqalarni yaratib, tashkilot faoliyatida ko‘proq ishtirok etadilar.[4]

Shunday qilib xulosa qilamizki alohida yordamga muhtoj bo‘lgan bolaning borligi o‘z-o‘zidan yetarli muammo degan fikrlar yuradi. Inklyuziv ta‘limda avvalam bor maqsadlarga emas, balki bolaning xarakterlariga e‘tiborni qaratish kerak. Bu esa alohida ehtiyojga ega bo‘lgan bolalarda olib boriladigan ta‘lim-tarbiya jarayoni quyidagi natijalarga olib keladi: tarbiyalanuvchilar tadbirlarda faol ishtirok etishlari mumkin, bolalarga yordam berish uchun mutaxassislar xamkorlikda ish olib borishlari maqsadga muvofiqdir. Bolaning imkoniyatlari va kuchli tomonlariga e‘tiboringizni qarating. Atrofdagilarning urf-odatlarini

odatdagidek qabul qilishadi. Bolalar to‘liq xayot kechirish uchun to‘liq ta’lim olishadi. Bolalarning qarashlari va fikrlari atrofdagilar uchun muhim bo‘lib qoladi.

Insonning qiymati uning qobiliyatlari va yutuqlariga bog‘liq emas. Har bir inson muloqot qilish va tinglash huquqiga ega. Barcha odamlar bir-biriga, tengdoshlarining qo‘llab-quvvatlashi va do‘stligiga muhtoj. Haqiqiy ta’lim faqat haqiqiy munosabatlar sharoitida amalga oshirilib qolmay, his qilish va o‘ylash imkoniyatiga ega. Inson hayotining turli xillik barcha jabxalarini ta’lim-tarbiya jarayonida yaxshilanib boradi. Bu esa har bir alohida yordamga muhtoj bolani hayotda o‘z o‘rnini topishga olib keladi. Bizning maqsadimiz alohida yordamga muhtoj bo‘lgan bolalarga to‘g‘ri ta’lim-tarbiya berish bilan birga ijtimoiy muhitga tayyorlashdan iboratdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2019 yil 13.05. 391-sonli qaror.
2. Inklyuziv, do‘stona o‘rganish sinflarni boshqarish.5-risola. YUNESKOning O‘zbekistondagi Vakolatxonasi, 2007 yil.28-29-betlar.
3. Sog‘lom va himoya qiluvchi IDO‘Mni yaratish.6-risola. YUNESKOning O‘zbekistondagi Vakolatxonasi, 2007 yil.14-15-betlar.
4. Inklyuziv, do‘stona o‘rganish sinflarni boshqarish.5-risola. YUNESKOning O‘zbekistondagi Vakolatxonasi, 2007 yil.33-bet.